Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
<i>Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li</i>	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка .....	1947
<i>Адилова Солияхон</i>	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar .....	1954
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi</i>	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues .....	1958
<i>Yusupova Nargiza Abdulxafizovna</i>	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
<i>Бекмуратова Умида Аманбаевна</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
<i>Namozova Nargiza Husniddin qizi</i>	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
<i>Rakhmonova Diyora Utkir's daughter</i>	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
<i>Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich</i>	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
<i>Davulov Ozodbek Qalandarovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari.....	1984
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
<i>Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari .....	1993
<i>Usmanova Sevara Akmalovna</i>	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
<i>Istamova Dilnoza Norboyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish .....	2012
<i>Turaxujayeva Madina Norpulatovna</i>	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni.....	2015
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri .....	2019
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa.....	2023
<i>Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich</i>	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun .....	2028
<i>Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich</i>	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari .....	2032
<i>Almardanova Salomat Bobonazarovna</i>	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati .....	2035
<i>Ashirov Abdurashid Ravshanovich</i>	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihagini amalga oshirishning o'ziga xosligi .....	2040
<i>Azimova Odinaxon Abduqodir qizi</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari .....	2049
<i>Kurbanov Baxrom</i>	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari .....	2053
<i>Madaminova Nilufar Madrasulovna</i>	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari .....	2056
<i>Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich</i>	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash .....	2059
<i>Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
<i>Mamasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
<i>Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich</i>	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari .....	2072
<i>Mo'minova Dilnavoz Komilovna</i>	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
<i>Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna</i>	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
<i>Ogina Otajonova</i>	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari .....	2084
<i>Oromiddinov Sardorbek Botirovich</i>	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari .....	2089
<i>Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
<i>Qodirova Feruza Usmanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
<i>Sobirova Bonu Matkarimovna</i>	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati .....	2099
<i>Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
<i>Mamasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi .....	2105
<i>Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish .....	2109
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
<i>Y. T. Umarova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar .....	2118
<i>Yakubova Manzura Abduraxmonovna</i>	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish .....	2121
<i>Yaxyayeva Umida Sharifovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli .....	2125
<i>Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi</i>	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati .....	2130
<i>Sodiqov Murod Naimovich</i>	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi .....	2134
<b>Tashpulatov Farxad Alisherovich</b>	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
<b>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</b>	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
<b>Negmatova Sanobar Qarshiboyevna</b>	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish .....	2149
<b>Mamatramov Anvar Chorshanbiyevich</b>	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli .....	2155
<b>Nishonov Dilshod Shamsidinovich</b>	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi .....	2162
<b>Djurakulova Adolat Xolmuratovna</b>	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language .....	2165
<b>Babayeva Komila Rishatovna</b>	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
<b>Buharbayev Muxtar Yusupovich</b>	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar .....	2172
<b>Do’schanova Nafosat Norimonovna</b>	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikirlashni rivojlantirish texnologiyalari .....	2176
<b>Fayzullayeva Feruza Raxmatovna</b>	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari .....	2179
<b>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</b>	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
<b>Jumanazarova Guljahon</b>	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
<b>Kimsanboyeva Ruksoraxon Ziyodbek qizi</b>	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari .....	2190
<b>Norjon Jamilova Abduxoliq qizi</b>	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
<b>Shamsiyeva M. R.</b>	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari .....	2196
<b>Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi</b>	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки .....	2200
<b>Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)</b>	

# 18–21 YOSHDAGI TALABA FUTBOLCHILARNI KOMPLEKS TAYYORLASHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI

Djemilov Temur Rasimovich

Navoiy davlat universiteti

“Jismoniy madaniyat” kafedrası katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada futbol mashg‘ulotlarida sportchilarning funktsional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvni qo‘llashning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy sport tayyorgarligi jarayonida har bir futbolchining jismoniy rivojlanish darajasi, fiziologik imkoniyatlari va futbol faoliyatiga moslashuv xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida individual mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqish va qo‘llash orqali futbolchilarning umumiy va maxsus ish qobiliyati oshiriladi. Olingan natijalar individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar sportchilarning funktsional holatini samarali rivojlantirishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** futbol, funktsional tayyorgarlik, individual yondashuv, mashg‘ulot jarayoni, jismoniy sifatlari, sport fiziologiyasi.

**Abstract:** This article examines the scientific-theoretical and practical aspects of applying an individual approach to enhance the functional fitness of athletes in football training sessions. In the modern sports training process, it is crucial to consider each player’s level of physical development, physiological capabilities, and adaptability to football activities. The study explores the possibilities of developing and implementing individualized training programs to improve both general and specific performance capacities of football players. The results indicate that training sessions organized based on an individual approach effectively enhance athletes’ functional status.

**Key words:** football, functional fitness, individual approach, training process, physical qualities, sports physiology.

**Аннотация:** В данной статье анализируются научно-теоретические и практические аспекты применения индивидуального подхода для повышения функциональной подготовленности спортсменов на занятиях по футболу. В процессе современной спортивной подготовки имеет важное значение учет уровня физического развития каждого футболиста, его физиологических возможностей и особенностей адаптации к футбольной деятельности. В исследовании рассматриваются возможности разработки и применения индивидуальных программ тренировок для повышения общей и специальной работоспособности футболистов. Результаты показывают, что занятия, организованные на основе индивидуального подхода, эффективно способствуют развитию функционального состояния спортсменов.

**Ключевые слова:** футбол, функциональная подготовленность, индивидуальный подход, процесс тренировки, физические качества, спортивная физиология.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimizning farmon va qarorlarida sportni ommalashtirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi “2019–2023-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 118-sonli<sup>1</sup> Farmon sport sohasini milliy va xalqaro miqyosda rivojlantirish, sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish hamda ilmiy asoslangan mashg‘ulot metodikalarini joriy etish vazifalarini belgilab berdi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019–yil 13–fevraldagi “2019 – 2023-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 118-sonli Farmon: <https://lex.uz/uz/docs/-4200883?%2000>



- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5887-son<sup>2</sup> Farmon qabul qilinib, futbol klublari faoliyatini takomillashtirish va milliy terma jamoalarni rivojlantirishga qaratilgan aniq vazifalar belgilandi.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-115-sonli<sup>3</sup> qaror bilan futbolni yanada rivojlantirish, infratuzilmani mustahkamlash va futbolchilar tayyorgarligi sifatini oshirish bo'yicha qo'shimcha choralar nazarda tutildi.

Futbol sport turi yuqori tezkorlik, chidamlilik, texnik va taktik harakatlarni tez va samarali bajarish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Shu bois futbolchilarning funksional tayyorgarligi ularning musobaqa faoliyatida barqaror natijalarga erishishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy mashg'ulot metodikalari ko'p hollarda futbolchilarning individual imkoniyatlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Shu sababli futbol mashg'ulotlarida individual yondashuv asosida funksional tayyorgarlikni oshirish masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy sport tayyorgarligi nazariyasida futbolchilarni kompleks tayyorlash masalasi yetakchi ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. V. N. Platonov tomonidan ishlab chiqilgan sportchilar tayyorgarligi tizimi oliy sport mahoratiga erishishda mashg'ulot jarayonining uzluksizligi, bosqichma-bosqichligi va funksional moslashuv tamoyillariga asoslanadi. Ushbu yondashuv 18–21 yoshdagi futbolchilar uchun ayniqsa muhim bo'lib, mazkur davrda sportchilarning jismoniy va funksional imkoniyatlari barqarorlashadi. T. Bomp va C. Buzzichelli tomonidan asoslangan periodizatsiya nazariyasi mashg'ulot yuklamalarini ilmiy asosda rejalashtirish orqali sport natijalarini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu nazariy qarashlar talaba futbolchilarning tayyorgarligida kompleks yondashuvni shakllantirish uchun muhim metodik asos hisoblanadi.

Futbolchilarning jismoniy va funksional tayyorgarligini rivojlantirishda kuch va tezkorlik sifatlari alohida ahamiyatga ega. Y. Verkhoshansky va M. Siff tomonidan ishlab chiqilgan yuqori intensiv yuklamalar nazariyasi sportchilarda kuch va portlovchi harakatlarni rivojlantirishning samarali usullarini ochib beradi. V. Issurin tomonidan ilgari surilgan blokli periodizatsiya konsepsiyasi esa mashg'ulot jarayonini maqsadli bloklar asosida tashkil etish orqali sportchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olishga imkon beradi. V. Zatsiorsky va W. Kraemer tadqiqotlarida kuch tayyorgarligining ilmiy asoslari yoritilib, mushak kuchini rivojlantirishda yuklama va tiklanish muvozanatini saqlash zarurligi ta'kidlangan. Bu yondashuvlar futbolchilarning kompleks tayyorgarligida jismoniy sifatlarni uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi.

Futbol mashg'ulotlarida funksional holatni nazorat qilish va yuklamalarni monitoring qilish masalalari ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. J. M. Palao va D. Valadés tadqiqotlarida yuqori malakali futbolchilarning jismoniy va fiziologik talablariga baho berilib, mashg'ulot jarayonida individual yondashuv zarurligi asoslab berilgan. T. Reilly va A. M. Williams futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligini ilmiy asosda rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratgan. M. McGuigan hamda S. Halson tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mashg'ulot yuklamalarini monitoring qilish, charchoqni nazorat etish va tiklanish jarayonlarini boshqarish sport natijalarini barqarorlashtirishda muhim omil sifatida ko'rsatib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar futbolchilar tayyorgarligini tashkil etishda milliy ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda 18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning kompleks tayyorlash jarayonini ilmiy asosda o'rganish maqsadida pedagogik va sport-fiziologik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlarini olish jarayoni pedagogik kuzatuv, nazorat testlari, funksional ko'rsatkichlarni o'lchash hamda tajriba-sinov usullariga tayangan holda tashkil etildi. Pedagogik kuzatuv mashg'ulot jarayonining tuzilishi, yuklamalarning hajmi va intensivligi, shuningdek, individual yondashuvning qo'llanilish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Nazorat testlari orqali futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi, xususan tezkorlik, kuch va chidamlilik ko'rsatkichlari baholandi. Funksional holatni aniqlash maqsadida yurak urish tezligi, maksimal kislorod iste'moli, tiklanish vaqti kabi ko'rsatkichlar maxsus o'lchov usullari asosida qayd etildi. Tajriba-sinov jarayonida futbolchilar tajriba

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 4–dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5887-son Farmon: <https://lex.uz/docs/-4631208>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023–yil 7–apreldagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-115-sonli qaror: <https://lex.uz/uz/docs/-6426271>

va nazorat guruhi ajratilib, mashg'ulotlar individual yondashuv asosida va an'anaviy metodika bo'yicha olib borildi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda matematik-statistik usullar qo'llanilib, o'rtacha qiymatlar, nisbiy o'zgarishlar va ishonchlilik darajalari aniqlanib, guruhlararo solishtirish amalga oshirildi. Statistik tahlil natijalari individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Mazkur metodologik yondashuv futbolchilarning kompleks tayyorgarligini baholash va mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda optimallashtirish uchun ishonchli empirik ma'lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### 1. 18–21 yoshdagi futbolchilarning yoshga xos rivojlanish xususiyatlari

18–21 yosh davri futbolchilar tayyorgarligi tizimida o'tish va mukammallashuv bosqichi hisoblanadi. Ushbu yosh oralig'ida sportchilarning organizmi jismoniy, funksional va psixologik jihatdan nisbatan barqarorlashadi, yuqori yuklamalarga moslashish qobiliyati ortadi. Ayniqsa, yurak-qon tomir, nafas olish va asab tizimlarining funksional imkoniyatlari yuqori sport natijalarini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratadi.

Talaba futbolchilar o'quv jarayoni bilan bir qatorda sport faoliyati bilan shug'ullanganligi sababli, ularning tayyorgarligini rejalashtirishda biologik yosh, funksional holat, o'quv yuklamalari va musobaqa faoliyati o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrda noto'g'ri rejalashtirilgan yuklamalar sportchining haddan tashqari charchashiga, jarohatlanish xavfining oshishiga hamda sport motivatsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin.

### 2. Talaba futbolchilarni kompleks tayyorlash tushunchasi va tuzilmasi

Kompleks tayyorlash futbolchilarning jismoniy, texnik, taktik, psixologik va funksional tayyorgarligini yagona pedagogik tizim asosida rivojlantirishga qaratilgan ko'p komponentli jarayon hisoblanadi. 18–21 yoshdagi talaba futbolchilar uchun kompleks yondashuv sport mahoratini oshirish bilan bir qatorda ularning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Kompleks tayyorlash umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik hamda funksional holatni boshqarish va tiklanish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Mazkur tarkibiy qismlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ulardan birortasiga yetarli e'tibor berilmasligi umumiy sport natijasining pasayishiga olib keladi.

### 3. Jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirishning nazariy va uslubiy asoslari

18–21 yoshdagi futbolchilarda jismoniy tayyorgarlikning asosiy maqsadi o'yin faoliyati talablariga mos bo'lgan jismoniy sifatlarni yuqori darajada rivojlantirishdan iborat. Ushbu davrda tezkorlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik va moslashuvchanlik sifatlari optimal darajada shakllantiriladi.

Uslubiy jihatdan mashg'ulotlarda intervalli va o'zgaruvchan yuklamalar, futbolga xos maxsus mashqlar hamda o'yin elementlari bilan boyitilgan mashg'ulotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Talaba futbolchilar uchun jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari o'yin faoliyati bilan integratsiyalashgan holda olib borilishi, ortiqcha umumiy yuklamalardan qochilishi lozim.

### 4. Texnik va taktik tayyorgarlikni kompleks rivojlantirish

Texnik tayyorgarlik futbolchining individual mahoratini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. 18–21 yosh davrida texnik harakatlarni yuqori tezlik va qarshilik sharoitida bajarish qobiliyatini shakllantirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Mashg'ulot jarayonida to'pni qabul qilish, uzatish, olib yurish va zarba berish elementlari murakkab vaziyatlarda bajarilishi lozim.

Taktik tayyorgarlik jamoaviy va guruhviy harakatlarni samarali tashkil etishga qaratiladi. Talaba futbolchilarda o'yin vaziyatini tez tahlil qilish, qaror qabul qilish tezligi hamda maydondagi pozitsion intizomni saqlash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Zamonaviy futbol talablari asosida taktik tayyorgarlik texnik va jismoniy mashqlar bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi zarur.

### 5. Psixologik tayyorgarlik va motivatsion omillar

Talaba futbolchilar faoliyatida psixologik tayyorgarlik alohida ahamiyatga ega. O'quv va sport faoliyatining birgalikda olib borilishi stress holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli mashg'ulot jarayonida sportchilarning ruhiy barqarorligini ta'minlash hamda musobaqaviy stressga chidamliligini oshirish muhim hisoblanadi.

Psixologik tayyorgarlik sport motivatsiyasini shakllantirish, irodaviy sifatlarni rivojlantirish va jamoada ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash yo'nalishlarida olib boriladi. Ushbu jarayon murabbiy va sportchi o'rtasidagi pedagogik hamkorlik asosida amalga oshiriladi.



## 6. Tiklanish jarayonlari va mashg'ulot yuklamalarini boshqarish

Kompleks tayyorlash tizimida tiklanish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish yuqori sport natijalarini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. 18–21 yoshdagi talaba futbolchilarda uyqu rejimi, ovqatlanish, faol va passiv tiklanish vositalaridan foydalanish mashg'ulot samaradorligini oshiradi.

Mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirishda mikro-, mezo- va makrotsikllar asosida yondashish hamda individual xususiyatlarni hisobga olish zarur. Bu sportchilarning sog'lig'ini saqlash va sport faoliyatini uzoq muddat davom ettirish imkonini beradi.

### Ilmiy yangilik

Mazkur tadqiqot futbol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy-pedagogik asoslarini tizimli ravishda o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda birinchi marta futbolchilarning kardiorespirator, mushak va asab tizimi ko'rsatkichlari asosida individual yondashuv mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Mashg'ulot yuklamalarini sportchilarning fiziologik imkoniyatlariga moslashtirish orqali chidamlilik, tezkorlik va kuch ko'rsatkichlarini optimal rivojlantirish modeli ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etildi.

Shuningdek, individual monitoring va nazorat tizimi orqali tiklanish jarayonini tezlashtirish, ortiqcha charchoq va jarohatlanish xavfini kamaytirish imkoniyatlari ilmiy asoslandi. Statistika tahlillar natijasida tajriba guruhi va nazorat guruhi o'rtasida ishonchli farqlar aniqlanib, individual yondashuv asosidagi mashg'ulotlar  $p < 0,05$  darajada samarali ekanligi tasdiqlandi. Ishlab chiqilgan maxsus mashg'ulot dasturlari sport pedagogikasi va sport fiziologiyasi sohasini yangi ilmiy xulosalar bilan boyitadi.

### Amaliy ahamiyat

Tadqiqot natijalari futbol mashg'ulotlarini amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, murabbiylar va pedagoglar uchun individual yondashuvga asoslangan mashg'ulot dasturlari metodik qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Mashg'ulot yuklamalarini sportchilarning jismoniy va funksional imkoniyatlariga moslashtirish orqali ortiqcha charchoq va jarohatlanish xavfi kamayadi.

Mazkur natijalardan oliy ta'lim muassasalari va sport maktablarida "Sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi" fanida amaliy material sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, yosh futbolchilarni tayyorlash jarayonida individual yondashuv asosidagi mashg'ulot texnologiyalarini joriy etish hamda uslubiy qo'llanmalar va o'quv-metodik majmualar ishlab chiqishda tadqiqot natijalari asos bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval: Tajriba-sinov natijalari jadvali

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (n=15)	Nazorat guruhi (n=15)	O'zgarish (%)
Yurak urish tezligi (ishda, bpm)	162 ± 4	160 ± 5	+1.25
VO <sub>2</sub> max (ml/kg/min)	55.2 ± 3.1	51.8 ± 3.5	+6.56
Mushak kuchi (press, kg)	78 ± 5	74 ± 6	+5.41
Tezkorlik (10 m, s)	1.74 ± 0.05	1.80 ± 0.06	-3.33
Chidamlilik (Yo-Yo testi, m)	1480 ± 120	1320 ± 110	+12.12
Tiklanish vaqti (min)	12.5 ± 1.2	15.3 ± 1.5	-18.30

### Jadval tahlili

- Yurak urish tezligi.** Tajriba guruhi mashg'ulotlarni individual yondashuv asosida amalga oshirgani sababli, ishchi yurak urish tezligi optimal darajada shakllandi va nazorat guruhiga nisbatan kichik o'sish kuzatildi (+1.25%). Mazkur holat yurak-qon tomir tizimining yuklamaga nisbatan optimal javobini ko'rsatadi.
- VO<sub>2</sub>max.** Tajriba guruhi futbolchilarida maksimal kislorod iste'moli sezilarli darajada oshdi (+6.56%). Bu individual yondashuv orqali kardiorespirator chidamlilikni samarali rivojlantirish mumkinligini tasdiqlaydi.
- Mushak kuchi.** Press testi natijalari mashg'ulotlar jarayonida kuch ko'rsatkichlari 5.41% ga oshganini ko'rsatdi. Ushbu natija individual yuklamalar mushak kuchini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qilganini tasdiqlaydi.
- Tezkorlik.** 10 metr ga yugurish testi natijalari tajriba guruhi uchun 1.74 s, nazorat guruhi uchun esa 1.80 s ni tashkil etdi. Natijada tezkorlik ko'rsatkichi 3.33% ga yaxshilangani aniqlandi. Bu individual yondashuv tezkorlik sifatini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatadi.
- Chidamlilik.** Yo–Yo testi natijalari asosida tajriba guruhi futbolchilarida chidamlilik ko'rsatkichi 12.12% ga oshdi. Bu ularning mashg'ulot yuklamalariga individual moslashuvi hamda uzoq muddatli faoliyatga chidamliligi oshganini bildiradi.

6. **Tiklanish vaqti.** Mashg'ulotdan keyingi tiklanish vaqti tajriba guruhi uchun 12.5 minut, nazorat guruhi uchun esa 15.3 minutni tashkil etdi. Natijada tiklanish jarayoni 18.3% ga tezlashgani kuzatildi. Bu individual yondashuv tiklanish jarayonlarini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot futbol mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Individual yondashuv mashg'ulot jarayonini futbolchilarning jismoniy rivojlanish darajasi, fiziologik imkoniyatlari hamda sport faoliyatiga moslashuv xususiyatlariga muvofiqlashtirish imkonini beradi.
2. Tajriba-sinov natijalari individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar sportchilarning kardiorespirator chidamliligi, mushak kuchi, tezkorlik va tiklanish qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilashini tasdiqladi. Statistika tahlil natijalari  $p < 0,05$  darajada ishonchli ekanligi aniqlandi.
3. Individual yondashuv mashg'ulot samaradorligini oshiradi, ortiqcha charchoq va jarohatlanish xavfini kamaytiradi hamda sportchilarning o'z imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon etishiga sharoit yaratadi.
4. Olingan ilmiy natijalar futbol mashg'ulotlarida individual tayyorgarlik tizimini shakllantirish, murabbiylar va pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari va sport maktablari amaliyotida qo'llash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.
5. Tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy ahamiyati futbol mashg'ulotlarini optimallashtirish, zamonaviy tayyorgarlik texnologiyalarini tatbiq etish hamda kelgusida individual yondashuvga asoslangan yangi ilmiy izlanishlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijada, futbol mashg'ulotlarida individual yondashuvni tatbiq etish orqali sportchilarning funksional tayyorgarligi va musobaqa natijalari barqaror ravishda oshiriladi. Bu esa zamonaviy sport pedagogikasi va sport fiziologiyasi sohasida muhim ilmiy hamda amaliy hissa hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Platonov V. N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. – Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2015.
2. Bompa T., Buzzichelli C. Periodization: Theory and Methodology of Training. – Human Kinetics, 2019.
3. Verkhoshansky Y., Siff M. Supertraining. – Rome: Verkhoshansky Press, 2018.
4. Issurin V. Block Periodization Training Theory. – New York: Ultimate Athlete Concepts, 2016.
5. Zatsiorsky V., Kraemer W. Science and Practice of Strength Training. – Human Kinetics, 2020.
6. Palao J. M., Valadés D. Physical and physiological demands of elite soccer players. *Journal of Strength and Conditioning Research*, 2021, 35(4), 1123–1135.
7. Reilly T., Williams A. M. Science and Soccer: Developing Elite Players. – London: Routledge, 2020.
8. McGuigan M. Monitoring Training and Performance in Soccer Athletes. – Champaign: Human Kinetics, 2017.
9. Halson S. Monitoring training load to understand fatigue in athletes. *Sports Medicine*, 2019, 49(2), 139–150.
10. O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi. Sport tayyorgarligi bo'yicha me'yoriy hujjatlar. – Toshkent, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.